



THE ROLE OF THE DISTRICTS OF THE KARAKALPAK ASSR IN THE AGRICULTURE AND INDUSTRY OF THE UZBEKISTAN SSR IN 1950-1980

Makhbuba Rakhmanova

Basic doctorant

National university of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan SSR, Karakalpak ASSR, physical-geographical location, southern zone, northern zone, island zone, region, agriculture, cotton, industry, fishing, Aral Sea.

Received: 19.06.26

Accepted: 20.06.26

Published: 21.06.26

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the state of agriculture and industry in the districts of the Karakalpak ASSR, which was part of the Uzbekistan SSR, according to its natural and geographical location, based on collected literature from the 1950s to 1980s. Furthermore, the influence of the location of the districts of the Karakalpak ASSR on all sectors of the national economy, climatic conditions, resources, and the significance of the districts in the agriculture and industry of the Uzbekistan SSR were studied based on the works of historians, economists, and researchers, available archival data, and periodical press materials.

1950 – 1980-YILLARDA QORAQALPOG‘ISTON ASSR TUMANLARINING O‘ZBEKISTON SSR QISHLOQ XO‘JALIGI VA SANOATIDAGI O‘RNI

Mahbuba Raxmanova

Tayanch doktorant

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, Qoraqalpog‘iston ASSR, tabiiy-geografik joylashuv, janubiy zona, shimoliy zona, orolbo‘yi zonasi, tuman, qishloq xo‘jaligi, paxta, sanoat, baliqchilik, Orol dengizi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston SSRning tarkibiy qismi bo‘lgan Qoraqalpog‘iston ASSRning tabiiy-geografik joylashuviga ko‘ra tumanlarining qishloq xo‘jaligi hamda sanoatning 1950 – 1980-yillardagi holati toplangan adabiyotlar asosida

atroflicha tahlil qilingan. Bundan tashqari Qoraqalpog‘iston ASSR tumanlari joylashuvining xalq xo‘jaligi barcha tarmoqlariga ta‘sir qilishi, iqlimiy sharoiti, resurslari, tumanlarning O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligi va sanoatidagi ahamiyati tarixchi, iqtisodchi olim va tadqiqotchilarning asarlari, mavjud arxiv ma‘lumotlari, davriy matbuot metriallari asosida tadqiqotga tortilgan.

РОЛЬ РАЙОНОВ КАРАКАЛПАКСКОЙ АССР В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКСКОЙ ССР В 1950–1980-Е ГОДЫ

Махбуба Рахманова

Базовый докторант

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекская ССР, Каракалпакская АССР, природно-географическое положение, южная зона, северная зона, приостровная зона, район, сельское хозяйство, хлопок, промышленность, рыболовство, Аральское море.

Аннотация: В данной статье на основе собранной литературы подробно проанализировано состояние сельского хозяйства и промышленности районов Каракалпакской АССР, входившей в состав Узбекской ССР, в 1950–1980-х годах в соответствии с их природно-географическим положением. Кроме того, влияние расположения районов Каракалпакской АССР на все отрасли народного хозяйства, климатические условия, ресурсы, значение районов в сельском хозяйстве и промышленности Узбекской ССР привлечены к исследованию на основе трудов историков, ученых-экономистов и исследователей, имеющих архивных данных, материалов периодической печати.

Kirish. O‘zbekiston SSR viloyatlari ichida Qoraqalpog‘iston ASSR hududining kattaligi bilan ajralib turadi va uning 39 – 40 foiz hududini egallagan. Katta hududni egallagan Qoraqalpog‘iston ASSRning barcha tumanlari bir xil emas. Ular tabiiy sharoitlar jihatidan, iqtisodiy rivojlanish darajasi va qishloq xo‘jaligining holati bo‘yicha ham bir biridan farq qiladi. Qoraqalpog‘iston ASSR tumanlarining tabiiy-geografik joylashuvi qishloq xo‘jaligi jihatdan qaraydigan bo‘lsak dehqonchilikda ekiladigan ekin turlari, ularning hosil darajasiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Sanoat jihatdan esa foydali qazilmalarning mavjudligi, yoqilg‘i turlarining tanqisiligi, sanoat uchun zarur xom ashyolarni yetkazish holatlarida ko‘rishimiz

mumkin. Shunday bo'lsada, tumanlar biri biri bilan o'zaro xo'jalik jihatdan bog'langan bo'lib yaxshilab bir iqtisodiy tumanni tashkil qilgan.

Shu va boshqa omillarni inobatga olgan holda Qoraqalpog'iston ASSR hududi tabiiy sharoiti [3. – B. 68], ishlab chiqarishning joylashuvi va xo'jalikning ixtisoslashuviga ko'ra, har biri iqtisodiy tumanlarning muayyan guruhini o'z ichiga oluvchi uchta tabiiy iqtisodiy zona: janubiy, shimoliy va orolbo'yi zonalariga ajratilgan. Quyida ularning tabiiy geografik xususiyatlari, qishloq xo'jaligi va sanoati holatlarini ko'rib chiqamiz.

Muhokama va natijalar. Janubiy zona Amudaryoning yuqori oqimida joylashgan bo'lib, unga To'rtko'l va Amudaryoning quyi iqtisodiy rayonlari (Beruniy, Mang'it) kirgan.

Janubiy zona shimoliy zonadan o'zining tabiiy sharoitlari, iqtisodiy rivojlanishning xarakteri hamda transport geografik holati bilan farq qilgan. Qoraqalpog'istonning boshqa zonalariga nisbatan mazkur hudud eng qulay tabiiy va tuproq sharoitlariga ega. Masalan, vegetatsiya davri (o'simlik urug'i unib chiqishidan boshlab hosil yig'ilgungacha bo'lgan davr) da sovuq bo'lmagan kunlar soni va effektiv haroratlar yig'indisi hamda yog'ingarchiliklar miqdori jihatidan ulardan ustunlik qilgan. Bunday issiq va o'simlikning yaxshi o'sishi uchun qulay sharoit Qoraqalpog'iston ASSRning janubiy zonasida ekiladigan barcha ekinlar, jumladan paxta yetishtirishga yaxshi sharoit yaratgan.

O'zining ishlab chiqarish xususiyatlariga ko'ra, mazkur zona asosan qishloq xo'jaligi uchun yaxshi paxtachilik hududi bo'lishi bilan birga umumittifoq mehnat taqsimotida respublika o'z zimmasiga olgan xo'jalikning asosiy tarmoqlarining konsentratsiyalashuvini ko'rish mumkin. Ularga paxtachilik, ipakchilik, qorako'lchilik, bog'dorchilik va uzumchilik kirgan. Janubiy zonaning sovxoz va kolxozlarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymati 92 foizi paxta, pilla va qorako'l hissasiga to'g'ri kelgan. Hududda umumiy paxta ekin maydonlarining 36,9 foizi, qorako'l qo'ylari sonining 43,4 foizi to'plangan bo'lib, paxtaning 51,6 foizi, qorako'l terining 44 foizi va pillaning 80,2 foizi yetishtirilgan [7. – C. 9].

Janubiy zonadagi sanoat qishloq xo'jalik xom ashyosi, asosan paxtani qayta ishlash korxonalari va qurilish materiallarining ishlab chiqarilishidan iborat bo'lgan. To'rtko'l, Beruniy shaharlari va Mang'it kabi shahar tipidagi aholi maskani janubiy zonaning sanoat markazlari bo'lib, ularda paxta va oziq-ovqat sanoatining korxonalari faoliyat ko'rsatgan. Zonada asosiy va yirik ikkita: To'rtko'l va Amudaryo iqtisodiy tumanlari yaxshi rivojlanganini ko'rishimiz mumkin.

Qoraqalpog'iston ASSRning eng janubiy qismida, Amudaryoning o'ng tarafida joylashgan To'rtko'l iqtisodiy tumani To'rtko'l va Beruniy tumanlarini birlashtirgan. Rayonda paxtachilik-

qorako'lichilik ixtisoslashuvi shakillangan, chorvachilik va pillachilik bilan uyg'unlikda bog'dorchilik va uzumchilik xo'jaligi ham nisbatan yaxshi tashkil qilingan etgan.

Qoraqalpog'iston ASSRning mehnat taqsimoti tizimida To'rtko'l tumani paxtachilikka ixtisoslashgan hudud sifatida uning xo'jalikdagi asosiy profilni belgilovchi soha bo'lib, kolxoz va sovxozlarning mahsulotida eng katta salmoqqa (95 foizga yaqin) ega bo'lgan. 1963-yilda tuman davlatga 81,5 ming tonna paxta yetkazib bergan, bu ko'rsatkich esa Qoraqalpog'iston ASSR bo'yicha topshirilgan paxtaning 38,2 foizini tashkil qilgan.

Chorvachilikda esa yetakchi o'rinni qorako'lichilik egallagan. Tumanda rangi turli tuslarga ega qorako'l (sur) mo'ynasini beruvchi qorako'l zotli qo'ylarning (qariyb 100 ming bosh) noyob guruhi to'plangan. 1960-yillarda tuman Qoraqalpog'iston ASSRdagi qorako'l terilarining 40 foizdan ko'prog'ini yetkazib bergan[7. – C. 11].

To'rtko'l tumanining sanoati asosan, qishloq xo'jalik xom ashyo mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar To'rtko'l va Beruniy paxta zavodlari hamda Beruniy yog'-moy zavodlaridan iborat bo'lgan. Tumanning mahalliy ehtiyojlari issiqlik elektr stansiyasi, ikkita tegirmon, maishiy kombinat va boshqa korxonalarining xizmat ko'rsatishi evaziga ta'minlangan. Sulton Uvays tog'i norudaviy xom ashyo makoni negizida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati, xususan, sement, ohak, talk ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Qoraqalpog'iston ASSRning janubida, Amudaryoning janubiy sohili bo'ylab joylashgan Amudaryo tumani o'zining tabiiy iqtisodiy sharoitlariga ko'ra To'rtko'l tumani va qo'shni Xorazm viloyati bilan o'xshashdir. Hududning yarmini Amudaryo tumanining markazi bo'lgan Mang'it shahri egallagan.

Ishlab chiqarish ixtisoslashuviga ko'ra, rayon asosan qishloq xo'jaligiga asoslangan. Qishloq xo'jaligida paxtachilik yetakchi o'rinni egallab, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uning atrofida shakillangan. Amudaryo tumani 1963-yilda davlatga yetkazib bergan 28,9 ming tonna paxta respublika ishlab chiqarishining 13,5 % ini tashkil etgan[8. – C. 12]. Tumanda sanoat sust rivojlangan, bu yerda faqtgina ikkita yirik korxonalar – Mang'it paxta tozalash zavodi va Mang'it yog'-moy zavodi faoliyat ko'rsatgan. Bu yerda qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan material xom ashyoning boy zaxiralariga bo'lib, ulardan eng yirigi – Jumurtog' ohaktosh va marmar koni bo'lgan.

Shimoliy zona Amudaryoning quyi oqimi va deltasiga yaqinroq hududda joylashgan bo'lib, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Kegayli va Chimboy quyi iqtisodiy tumanlari hamda Nukus va Taxiato'sh shaharlarini o'z ichiga olgan. Ushbu zonada ancha keskin iqlimiy sharoit hukm surgan. Janubiy zonaga qaraganda, uning sovuq davri ancha davomli bo'lib, hosil yetilishi uchun zarur haroratlar yig'indisi kamroq bo'lgan.

Shimoliy zonaning umumiy maydoni Qoraqalpog‘iston ASSR hududining uchdan ikki qismini tashkil qilgan. Tabiiy iqtisodiy jihatdan yuqorida tilga olingan rayonlar bir-biri bilan o‘xshash. Iqtisodiyotini asosan go‘sht va sut qoramolchiligi hamda qorako‘lchilik bilan uyg‘unlashgan paxtachilik majmuasi tashkil qilgan. Sholichilik, ipakchilik, yilqichilik, sabzavotchilik va polizchilik kabi tarmoqlar sust rivojlangan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, respublikada kartoshka va sabzavot yetishtirishda hattoki aholi talabini ham qondira olmagan[1]. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida hududning noqulay tabiiy geografik va iqlimiy hududda joylashganligini, hozir yetilishi uchun zarur bo‘lgan zarur harortali kunlarning kamligida ko‘rishimiz mumkin.

1960-yillarda shimoliy zona ulushiga respublikadagi paxtasining 48,4 foizi, pillachiligining 19,8 foizi, yirik shoxli qoramollarning 70,3 foizi, qorako‘l qo‘ylarining 60 foizi to‘g‘ri kelgan. Chorvachilikning asosiy tarmog‘i bo‘lgan sut ishlab chiqarish xarajatlari shimoliy zonada janubiy zonaga nisbatan 22 foizga, mol go‘shti ishlab chiqarish xarajatlari 15,5 foizga, qo‘y go‘shti ishlab chiqarish xarajatlari 5,7 foizga kam bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin[7. – C. 10]. Bu tafovutlarning asosiy sababi zonaning chorvachilik uchun xos bo‘lgan tabiiy-geografik xususiyatlari hamda o‘zlashtirilmagan qo‘riq yerlarning ko‘p bo‘lganligi bilan asoslashimiz mumkin. Birgina 1960-yilda respublika go‘sht yetishtirish sohasida umumiy hajmning 40 foizini mol go‘shti tashkil qilgan[2]. Qoraqalpog‘iston ASSRning shimoliy zonasida qoramollarni yetishtirish va mol go‘shti ishlab chiqarish qishloq xo‘jaligi hamda sanoati uchun ham manfaatli bo‘lgan.

Paxta yetishtirishda muhim va asosiy chora-tadbirlardan biri chigitning o‘z vaqtida ekilishidir. Bu tadbirlar paxtachilikning eng shimoliy hududi sifatida Qoraqalpog‘iston ASSRning janubiy zonalarida uchun 20-aprelgacha, shimoliy zonalarida esa 25-aprelgacha tugatilishi hududning iqlimiy sharoitidan kelib chiqib paxtaning normal rivojlanishi va hosilning erta yetilishi uchun ayniqsa muhim ahamiyatga egadir[7. – C. 11]. Janubiy va shimoliy zonalaridagi paxta ekiladigan hududlar orasidagi masofa 210 km ni tashkil qiladi. Shu asosda janubdan shimolga tomon paxta hosili har 10 km da gektariga 1 sentnerdan kamayishini ko‘rishimiz mumkin. Mana shu sabab zonalar orasidagi hosildorlik farqi o‘rtacha 20 sentergacha yetgan. Shimoliy zona tarkibiga kiruvchi Taxtako‘pir, Qorao‘zak, Chimboy, Qo‘ng‘irot va Leninobod tumanlari Qoraqalpog‘iston ASSRning eng shimoliy paxtachilik tumanlaridir [14. – B. 415]. Xususan, 1964-yilda Qoraqalpog‘iston ASSR paxta hosilidan 220 ming tonna paxtani davlatga topshirgan bo‘lsa, shundan yarmi shimoliy zona tarkibidagi Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Kegayli, Chimboy tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelgan[13. – B. 1].

Shimoliy zonaning Nukus, Xo‘jayli, Chimboy va Taxiatosh shaharlari asosiy sanoat markazlari hisoblanib, ularda paxta tozalash, oziq-ovqat, metall ishlov berish, energetika, yog‘ochsozlik sanoatlari hamda qurilish materiallarining ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlangan. Ayniqsa, 1933-yilda tashkil qilingan va keyinchlik Qoraqalpog‘iston ASSRning poytaxti bo‘lgan Nukus shahrida sanoatning turli tarmoqlari, xususan, traktorlar uchun ehtiyot qismlarini ta‘mirlash zavodi, tikuvchilik fabrikasi, beda urug‘ini tozalash zavodi, sut-yog‘ zavodi, g‘isht zavodi, pivo zavodi, poligraf kombinati boshqalar faoliyat ko‘rsatgan[9. – B. 2].

Shimoliy zona tarkibidagi ulkan, kam o‘zlashtirilgan hudud Ustyurt hamda Qizilqumning Qoraqalpog‘iston ASSRga qarashli qismi joylashgan zonaning sug‘oriladigan maydoni Qoraqalpog‘istonning eng seraholi va iqtisodiy jihatdan rivojlangan qismi bo‘lib, uning asosiy sanoat va energetika bazasi hisoblangan. Bu yerda aholining uchdan ikki qismi istiqomat qilib, sanoatning qariyb to‘rt dan uch qismi, qishloq xo‘jalik maydonlarining yarmidan ortig‘i joylashgan.

Ushbu zona hududida yer osti foydali qazilmalari ham mavjud bo‘lgan. 1960 – 1970-yillarda Ustyurtda tabiiy gazning boy zaxiralari, Qo‘shqanatog‘ hududida esa mineral tuzlarning yirik konlari aniqlangan hamda ittifoq manfaatlar uchun foydalanilgan[16. – C. 51-52.].

Amudaryoning chap sohilida joylashgan Xo‘jayli tumani shimoliy zonaning asosiy qishloq xo‘jalik tumanidir. Geografik va transport sharoitlari qulay bo‘lgan. Kattaligi, iqtisodiy ahamiyati va sanoatning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi jihatidan tuman avtonom respublikada Nukusdan keyin ikkinchi o‘rinda bo‘lgan. Xo‘jaylida paxta tozalash zavodi, yog‘ zavodi, go‘sht kombinati, kemalarni ta‘mirlash zavodi, gilam va tikuvchilik fabrikalari ham ishlab turgan[4. – B. 240]. Bundan tashqari tumanda 1956-1958-yillarda go‘shtni qayta ishlash zavodi ham ishga tushirilgan[11. – C. 98.]. Keyinchalik esa 1966-1970-yillarda bu yerda sut zavodi qurilib foydalanishga topshirilgan[15. – B. 106]. Energetika sanoatining yagona markazi sifatida tuman elektr energiyasi bilan nafaqat Qoraqalpog‘istonni, balki Amudaryoning etaklarini to‘la ta‘minlagan. Sanoatning mazkur tarmoqlaridan tashqari tumanda chetdan keltiriladigan xom ashyo asosida ishlaydigan metallni ta‘mirlash va yog‘ochsozlik korxonalarini yangidan barpo etilgan.

Xo‘jayli tumanining xalq xo‘jaligida sanoat, birinchi navbatda paxtachilik va oziq-ovqat sanoati yetakchi o‘rinni egallagan. Sovet davr mahalliy matbuotida yoritilishicha Xo‘jayli tumani paxta yetishtirishda boshqa tumanlarga qaraganda ancha ilg‘or bo‘lib, hududda gektariga 25-30 sentnergacha paxta yetishtirilgan. Xo‘jayli tumani 1963-yilda davlatga topshirgan 20,6 ming tonna paxta respublikadagi paxta ishlab chiqarilishining 9,8 foizini tashkil qilgan[10. – B. 1.]. Qishloq xo‘jaligi jihatidan tuman paxtachilikka ixtisoslashtirilgan bo‘lib, bunda muayyan

darajada rivojlangan go'sht-jun yo'nalishidagi chorvachilik hamda pillachilik sanoati ham ishlab turgan.

O'zbekiston SSRning shimoli-g'arbida, Amudaryoning quyi chap sohili bo'ylab joylashgan Qo'ng'iro't tumani Qoraqalpog'iston ASSR yana bir muhim tumanlaridan biri bo'lgan. Tabiiy-iqtisodiy sharoitlari jihatidan tuman hududini 2 qismga, ya'ni aholisi deyarli yo'q, sof chorvachilik mavjud bo'lgan Ustyurt hamda sug'oriladigan, aholi yashaydigan, paxtachilik bilan bir qatorda sholichilikka uyg'unlikda go'sht-sut va jun chorvachiligi mavjud bo'lgan qismga bo'lish mumkin. Ushbu tumanda paxtachilikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlari uncha qulay bo'lmagan. Bahor kech kirib, kuzda sovuq erta boshlanadi. Bunday sharoitlarda paxtaning eng ertapishar navi ham yetilishiga ulgurmaydi. Shundan kelib chiqqan holda bu hududda paxta o'rniga sholi ekiladigan maydonlar kengaytirilgan. Tabiiy iqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan holda bir qancha sholichilik sovxozlari tashkil qilingan.

Amudaryoning o'rta oqimidagi o'ng sohil bo'ylab joylashgan Kegeyli tumanining ham tabiiy sharoitlar majmuyi yuqorida aytilgan shimoliy zonadagiga o'xshash. Umuman aytganda, o'zining iqlimiy sharoitlariga ko'ra hudud O'zbekiston SSRning eng sovuq qismida joylashgan.

Qoraqalpog'iston ASSRning xalq xo'jaligi tizimida tuman iqtisodiy jihatdan eng sust rivojlangan hudud hisoblangan. Unda nafaqat ittifoq yoki respublika, balki viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan sanoat korxonasi mavjud bo'lmagan. Bu yerda aholi zichligi eng kam bo'lib, yerlarning qishloq xo'jaligi jihatidan o'zlashtirilishi ham nihoyatda past bo'lgan. Tuman aloqa yo'llari va mehnat resurslari bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Uning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan muhim omillardan biri uning mahalliy yoqilg'i va energetik resurslar bilan yetarli darajada ta'minlanmasligi natijasida sanoat korxoanlarining faoliyat ko'rsatmaganligidadir.

Qoraqalpog'iston ASSR shimoli-sharqining eng chekka qismida joylashgan Chimboy tumani o'zining tuproq va iqlimiy sharoitlariga ko'ra qo'shni Kegeyli tumani bilan deyarli bir xil sharoitlarda bo'lib, farqli jihati shundaki, bu yerdagi termik sharoitlar yanada og'ir va irrigatsiya sharoitlarini yaxshilashga zarurat katta bo'lgan. Uncha qulay bo'lmagan tabiiy va iqtisodiy sharoitlar dehqonchilikni rivojlantirishni qiyinlashtirgan. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'ini juda past hosildorlikni namoyon etuvchi paxtachilik hamda go'sht-sut chorvachiligi tashkil qilgan.

Yig'im-terim hajmi uncha katta bo'lmasda, Chimboy tumani paxtani ishlab chiqarish bo'yicha zonada ikkinchi o'rinda turgan. 1963-yilda tomonidan davlatga sotilgan 37,3 ming tonna paxta respublika ishlab chiqarishining 17 foizini tashkil qilgan. Tumanning sanoati paxtani

qayta ishlash – Chimboy paxta tozalash zavodi va yog‘ ishlab chiqarish korxonalaridan iborat bo‘lgan[15. – B. 95].

Yuqorida aytilgan korxonalaridan tashqari, shaharda Taxiatosh – Chimboy elektr uzatish tarmog‘i podstantsiyasi, qandolatchilik va tikuv sexlarini o‘z ichiga olgan maishiy xizmat ko‘rsatish kombinatlari faoliyat ko‘rsatgan.

Orolbo‘yi zonasi. Ushbu zona Amudaryo deltasining quyi qismida joylashgan bo‘lib, Orol dengizining ko‘plab ko‘llar, shaxobchalar va qamishzorlariga ega bo‘lgan butun janubiy qismidan iborat bo‘lgan. Qoraqalpog‘iston ASSR hududining 25 foizini egallagan. Aholi asosan baliq ovlash va uni qayta ishlashga ixtisoslashgan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullangan. Bundan tashqari, chorvachilik va mo‘ynali hayvonlarni yetishtirish (xususan, shimol tulkilari va qorako‘zanlarni qafasda urchitish) rivojlangan. Qishloq xo‘jaligi bu hududda yordamchi xo‘jalik xarakteriga ega bo‘lib, baliq konserva kombinati va baliqchilik kolxozlari qoshidagi mayda sabzavotchilik va sut xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatgan.

Qoraqalpog‘iston ASSRning Orolbo‘yi hududida ondatra yetishtirish ham sermahsul tarmoqlardan biri bo‘lgan. Dastlab uning faqat terisidan mo‘ynalar tayyorlash maqsadida foydalanilgan bo‘lsa, keyinchalik go‘shidan hayvonlar uchun ozuqa uni tayyorlangan. Bu Mo‘ynoq baliq kombinatining maxsus qayta ishlash sexida amalga oshirilgan[5. – C. 36.].

1950 – 1960 yillar mobaynida O‘zbekiston SSRda ovlanadigan baliqlarning 98,9 foizi ushbu hudud hisobiga to‘g‘ri kelgan, baliq konservalarining ishlab chiqarilishi ham shu yerda amalga oshirilgan. Bundan kelib chiqib, hududning iqtisodiy rivojlanishi baliq sanoatining xom ashyo bazasi bo‘lgan Orol dengizining havzasi bilan uzviy bog‘liq ekanligini aytishimiz mumkin. Tumanda xom baliqlarni qayta ishlash bo‘yicha korxonalar, baliqchilik flotining kemalarini ta‘mirleydigan ustaxonalar, yuklarni ortish va ularni tushirish ishlarini bajaruvchi port xo‘jaligi joylashgan. Bundan tashqari, bu yerda dengiz bo‘yi aholi maskanlarida, shu jumladan Mo‘ynoq, Urga, Qozoqdaryo, Aralsk kabi port shaharlarda joylashtirilgan baliq zavodlari mavjud bo‘lgan. Ular orasida eng yirigi – ittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan Mo‘ynoq baliq konserva kombinatidir. Hudud xo‘jaligining barcha tarmoqlari atrofida shakllanadigan asosiy sanoat markazi ana shu Mo‘ynoq shahri bo‘lgan. Mo‘ynoqning baliqchilik bilan shug‘ullanuvchi korxonalari Orol dengizining janubiy qirg‘oqlari bo‘ylab joylashgan[9. – B. 3].

Sovet ittifoqi tomonidan o‘tkazilgan “sotsialistik musobaqalar” da Orol dengizida ko‘p baliq ovlanishi natijasida baliqlar turi va hajmi kamaya boshlagan. Natijada bunga qarshi choralar ko‘rish maqsadida, 1950-yil 11-yanvarda SSSR Vazirlar Kengashi “Janubiy Orolbo‘yi qirg‘oqlarida baliq zaxiralarini ko‘paytirish choralari to‘g‘risida” qaror qabul qilgan. Shunday bo‘lsada, 1951-yilda Mo‘ynoq baliqchilik kombinati xodimlari baliq va baliq mahsulotlari

bo'yicha belgilangan yillik rejani 110,2 foizga bajargan. Sovet davlatining ma'muriy-buyruqbozlik siyosati natijasida bu raqamlar yana ham ortgan. 1952-yilda yillik reja 142 foizga bajarilgan va foyda 18548,4 so'mni tashkil qilgan. Ammo 1970-yillarga kelganda Orol dengizining baliq yetishtirish foizi tushib ketgan. 1960-yilda ov hajmi 450 ming sentnerni tashkil qilgan bo'lsa, 1969-yilda esa bu ko'rsatkich 183,6 ming sentnergacha pasayib ketgan[6].

Orolning chekinishi, suv sathining kamayishi natijasida dastlab 1981-yilda kemalar qatnovi to'xtatilgan bo'lsa, 1984-yilga kelib baliq ovlash ham tugatilgan[12. – Б. 256.]. Orol dengizidagi og'ir ekologik vaziyat natijasida baliqchilik sanoati va ondatra yetishtirish kabi sohalar ham inqirozga uchragan. Orolbo'yi zonasi avtomobil va temir yo'llardan uzoqlikda joylashgan. Suv transporti bu yerda transportning asosiy turi bo'lib, dengiz va Amudaryo orqali aloqa ta'minlangan. Lekin daryo o'zanining tez-tez o'zgarib turishi, orol va sayozliklarning vujudga kelishi hamda navigatsiyaning mavsumiyligi kemalarning odatdagi qatnovini qiyinlashtirgan. Tuman uchun avitransport, ayniqsa qish davrida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston SSRning katta hududini egallagan viloyat Qoraqalpog'iston ASSRning tumanlari o'zining joylashuv xususiyatlari, keskin kontinental iqlim sharoiti hamda markazdan uzoqda joylashganligi ularning rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo'lgan. 1950 – 1980-yillarda Qoraqalpog'iston ASSR hududining bir-biridan farq qiluvchi tumanlaridan bir-birini to'ldiruvchi o'zaro iqtisodiy bog'langan tumanlar tashkil qilishga erishilgan. Nisbatan yaxshi iqlim sharoitiga ega bo'lgan janubiy zonalarda paxtachilikka e'tibor qaratilgan bo'lsa, shimoliy, o'zlashtirilmagan cho'l hududlarida chorvachilikdan samarali foydalanilgan. Sanoatda esa paxtani qayta ishlash va baliq hamda baliq mahsulotlari, konserva mahsulotlarini ishlab chiqarish yetakchilik qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'z MA R-322-fond, 1-ro'yxat, 2485-yig'ma jild, 18-varaq.
2. O'z MA R-90-fond, 10-ro'yxat, 379-yig'ma jild, 27-varaq.
3. Qarang: Ибрагимова Р.А. Орол ва Оролбўйини табиий географик районлаштириш тарихи. / “Орол минтақаси ва қўшни ҳудудларда комплекс географик тадқиқотларнинг муаммо ва истикболлари” халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Нукус: 2018. – Б. 68.
4. Асанов Г.Р., Набихонов М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 240.
5. Ахунов И. Экономические районы Узбекской ССР. – Ташкент: 1957. – С. 36.

6. Бекимбетов К. (2022). ПРОМЫШЛЕННОЕ РЫБОВОДСТВО В КАРАКАЛПАКСТАНЕ И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЯ. Fars int J edu soc sci hum 10(12); 2022; 10(12), 260–266. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7440758>
7. Венгерский В.М. Важнейшие вопросы научно обоснованной системы ведения сельского хозяйства в Кара-Калпакской АССР. // Сельское хозяйства Узбекистана. – Ташкент: 1960. №6. – С. 9, 10, 11.
8. Избасханов Е. Экономическое районирование Каракалпакской АССР. // Вестник Каракалпакского филиала Академии наук Узбекской ССР. – Нукус, 1964. – №1(15). – С. 12.
9. Қорақалпоғистон билан Хоразм бирлашган иқтисодий-маъмурий район // Хоразм ҳақиқати. – 1957 й. – 16-июнь. – №119. – Б. 2, 3.
10. Қорақалпоқ “оқ олтин”и. // Совет Ўзбекистони. – 1964. – 15-сентябрь. – №214. – Б. 1.
11. Нурмухаммедов М.К., Жданков Т.А., Камалов С.К. Каракалпаки. (краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). – Ташкент: ФАН, 1971. – С. 98.
12. Ражабов Қ. Ўзбекистон тарихи. Иккинчи жилд (1939 – 2000). – Тошкент: Фан, 2024. – Б. 256.
13. Совет Ўзбекистони. – 1964. – 2-декабрь. – №280. – Б. 1.
14. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Иккинчи китоб 1939 – 1991 йиллар. – Тошкент: О‘ЗБЕКISTON, 2019. – Б. 415.
15. Хайдаров И. Ўзбекистон саноатининг совет иттифоқи ягона халқ хўжалиги комплексидаги ўрни. – Тошкент: 2019. – Б. 95, 106.
16. Шаппов А. Устюрт покорится человеку. // Сельское хозяйства Узбекистана. – Ташкент: 1967. №10. – С. 51-52.